

Bobojonova Dilnoza Oxunjonovna

Osiyo xalqaro universiteti

“Pedagogika psixologiya” kafedrasi o’qituvchisi

E-mail: bobojonovadilnozaoxunjonovna@oxu.uz

O‘ZBEK XALQI TURMUSHI BILAN BOG‘LIQ OVCHILIK, CHO‘PON, CHAVANDOZLIK, YILQICHILIK ASOSIDA SHAKLLANGAN XALQ MAQOLLARI

Annotatsiya:Maqollarni o‘rganmay turib, “xalqlarning kelib chiqishi va etnik tarixi, dunyo sivilizatsiyasining tarkibiy qismi bo‘lgan xalq, uning madaniyati va turmushining o‘ziga xosliklarining shakllanishi haqidagi tarixiy fan “etnografiyani chetlab o‘tish mumkin emas”. Hozirgi zamon tilshunoslik fanida maqollarning kasb-hunar doirasidagi talqini deyarli o‘rganilmagan. Maqol – jamiyat “parchasi”ning modelidir. Shu bois uni o‘rganmasdan birorta dunyo jamiyatini tushunishning ma‘nosi yo‘q. Bu noyob durdonalarda xalqimizning yaratuvchilik, zukkolik, donolik kabi fazilatlarini o‘z ifodasini topgan. Mazmunan boy, shaklan go‘zal bu badiiy boyliklarimiz hozirgi kunda xalqimizga va millionlab zamondoshlarimizga xizmat qilmoqda.

Kalit so‘zlar: maqol, sipoh, hut, omoch, yer tanobi, hammol, qantar...

Ovchi – 1. Ov ishi bilan shug‘ullanuvchi, ov qiluvchi kishi.

2. Kasb oti¹.

1. Otolmagan ovchi yoyidan ko‘rar.

2. Miltiq ko‘targan bilan ovchi bo‘lmas,

Dag‘dag‘a qilgan bilan dovchi.

3. No‘noq mergan oqsoq quyon izlar.

4. Ovchi chumchuq tutibdi.

5. Ovchining zo‘ri sher otar,

Erning zo‘ri yer ochar.

6. Usta ovchi bekorga o‘q otmas.

7. Zo‘r ovchi sher otadi.

8. Usta ovchi chumchuqqa o‘q otmas.

9. Sayyodda makr bo‘lmasa, domiga ov ilinmas.

10. Itlik ovchi ovulga sig‘mas.

11. Ovchi bilan it – ovda o‘rtoq.

12. Ovchining zo‘ri sher otar,

¹ O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Ikki jildlik. 1-jild. A-R. –Moskva: Rus tili, 1981. - 631 b.

Dehqonning zo`ri yer ochar.

13. Ovchi qancha hiyla qilsa,

Ayiq ham shuncha qochish yo`lini biladi.

14. Ovchining ko`zi – ovda.

15. Ovchi ovchilikni qancha bilsa,

Ayiq ham qochish yo`lini shuncha biladi.

Itlik ovchi ovulga sig`mas maqolida ovchi ov qila-qila uzoqlarga ketib qolib, qosh qoraygach, uyiga qaytib kela olmay, majburan biror ovulda tunab qolmoqchi bo`lsa, uning bir o`ziga har qanday xonadon ham joy topib beradi. Ammo uning yonida itini ko`rgan odam “joy yo`q” deb qo`ya qoladi².

Ovchining zo`ri sher otar, erning zo`ri yer ochar maqolida haqiqiy mergan ovchi ov mahalida eng yaxshi o`ljani ko`zlaydi. Mard, mehnatsevar olijanob kishilar esa qo`riq, bo`z yerlarni, ishga yaroqsiz bo`lib yotgan tashlandiq, changalzor yerlarni ochib, hosildor qilib, bog`-rog`ga aylantiradi.

Usta ovchi bekorga o`q otmas maqoli orqali usta ovchi bekorga o`qni sarf qilib otavermaydi, arziydigan ov uchraganda, qulay payti kelganda otadi, deyilmqchi.

No`noq mergan oqsoq quyon izlar. Qo`lidan hech bir ish kelmaydigan, noshud, epsiz, buning ustiga dangasa odam chinakamiga harakat qilmay, ishning osongina, yengilgina yo`lini tanlaydi. Ya`ni, og`irning ustidan, yengilning ostidan o`tishga harakat qiladi. Ushbu maqol istehzoli vaziyatlarda ishlatiladi. Tajribasiz insonlar har doim oson yo`ldan borib, mo`maygina daromad topishni o`ylaydi. Ammo mashaqqatsiz topilgan boylik hech qachon ko`pga cho`zilmaydi.

Ovchi chumchuq tutibdi. Maqol maqtanchoq, takabbur insonlarga nisbatan aytilgan. Qo`lidan ulkan ishlar keladigan, qo`li uzatgan yeriga yetadigan odam arzimagan bir kichik ish qilib qo`yib, shu ishi uchun maqtanib, gerdayib yursa, to`g`ridan-to`g`ri uning yuziga yoki bo`lmasa zimdan shu maqol ishlatiladi.

2.10. Cho`pon, chavandozlik, yilqichilik asosida shakllangan xalq maqollari

Cho`pon – yaylovda mayda mol boquvchi.

Chavandoz – ot choptirish, uloq chopish, otda o`ynash san`atini puxta egallagan odam.

1. Cho`ponning oyog`i yetmasa, tayog`i yetadi.

2. Cho`ponning ayroni ko`p,

Dangasaning bayrami ko`p.

3. Cho`pon ko`p chorvada qo`y harom o`ladi.

4. Cho`pon yetti o`lkani kezar.

5. Cho`pon bo`lsang qo`yni boq, moyi tushsin chorvadan,

Itni boqsang sirtidan boq, qo`y oldirmas – qo`radan.

² Ш.Шомаксудов, Ш.Шорахмедов.. Хикматнома: ўзбек мақолларининг изоҳли луғати. -Т.: Ўзб. Совет Энциклопедияси Бош редакцияси, 1990, - 5286

6. Cho`pon bo`lsang qoshida bo`l,
Dehqon bo`lsang – roshida.
7. Chavandoz otini, yaxshi er xotinini qaritmaydi.
8. Podachi ko`paysa, qo`y harom o`ladi.
9. Yomon cho`pon tikonga berar,
Yaxshi cho`pon – do`konga.
10. Qo`y semizi – qo`ychidan.
11. Qo`yga cho`pon qaramog`i – em bo`lar,
Qaramasa bo`rilarga yem bo`lar.
12. Qo`ychivon ko`p bo`lsa, qo`y harom o`ladi.
13. Cho`ponga suhbat harom.
14. Cho`ponning tayog`i – otlining oyog`i.
15. Podaching noshud bo`lsa, sog`otni cho`loq qiladi.
16. Cho`ponning tayog`idan, kelinning oyog`idan.
17. Ko`ngillagan cho`pon takadan ham sut sog`ar.
18. Podachiga – yordamchi, temirchiga – bosqonchi.
19. Tasbeh ag`darganning bari mulla emas,
Tayoq tutganning bari cho`pon emas.
20. Qo`y egasi bilan cho`ponning sanog`i to`g`ri kelmas.
21. Echki boqqan chorvador bo`lmas,
Shaftoli ekkan – bog`bon.
22. It - cho`ponning qo`ldoshi, yolg`izlikda - yo`ldoshi.
23. Yilqichining yeganini birda it yemaydi, birda xon yemaydi.
24. Yilqining bir ko`rganini xon ko`rmaydi,
Bir ko`rganin it ko`rmaydi.
25. Poygachining ko`zi - g`ovda.
26. Dehqon dehqondan qolsa bir yilda yetar,
Cho`pon cho`pondan qolsa qirq yilda yetar.
27. Cho`pon – yaylov sultoni,
Dehqon – yer sultoni.
28. Dehqon qorda tinar, cho`pon – go`rda.
29. Cho`pon o`lsa tinar, dehqon yog`sa tinar.

30. Qo`shchi yomg`irda tinar, qo`ychi o`lganda.
31. Dehqon ekkani yeydi, cho`pon – boqqanini.
32. Qo`yni boqsa, qo`y tuyog`idan qattiq cho`pon boqsin.
33. Cho`poni ko`p chorvada qo`y harom o`ladi.
34. Cho`pon ko`p bo`lsa qo`y harom o`ladi.
35. Cho`pon uxlagan zamon bo`rilar to`y qilishar.
36. Cho`ldagi cho`pondan yo uydagi qizdan so`ra.
37. Cho`pon odam go`shtga kelmas.
38. Cho`pon yaxshi bo`lsa qo`y o`lmas.
39. Cho`ponga majlis harom.
40. Donodan elchi qil.
- Chorvadan yo`lchi qil.
41. Echkining o`lgisi kelsa, cho`ponning tayog`iga suyanar.

Qo`yni boqsa, qo`y tuyog`idan qattiq cho`pon boqsin Qo`y tuyog`i qattiq bo`ladi. Cho`pon ham shunday qattiq, ya`ni mehnat mashaqqatlariga chidamli, matonatli, chiniqqan, yoz jaziramalari-yu, qish izg`irinlariga bardosh beradigan bo`lishi kerak³.

Chavandoz otini, yaxshi er xotinini qaritmaydi maqolida chavandoz odam kasbini qanchalik puxta egallagan, o`z ishining mohir ustasi bo`lsa, o`z ishini bilib qilsa, otini asrasa, uloq payti o`ziga asqotadi. Haqiqiy mard, mehribon, oqko`ngil er esa rafiqasini asrab-avaylaydi. Asragan rafiqasi qarigan chog`ida suyanch, tirgak bo`ladi.

Cho`pon yaxshi bo`lsa, qo`y o`lmas. Har bir kasb egasi o`z ishiga nisbatan, sadoqat va sidqidildan harakat qilsa, oshig`i olchi bo`lib, qilayotgan ishining unumi, barakasi bo`ladi. Yaxshi cho`pon bir suruv podani ofatlardan asrab, yirtqich hayvonlardan himoya qiladi. Bu ishi evaziga daromadi ko`payadi. Ushbu maqolni majoziy ma`noda ham qo`llash maqsadga muvofiq.

Cho`pon uxlagan zamon bo`rilar to`y qilishar. Ba`zi kasb egalari mavsumiy, vaqtli mehnat qilsalar, cho`ponlar 12 oy davomida tinmay mehnat qiladilar. Cho`ponlarning doimiy dushmani ham yo`q emas. Bir suruv podani boshqarib ketayotgan cho`pon tin olishga ko`zi ketgan mahal bo`rilar “to`yni boshlab yuboradilar”. Podada sanoq kamayadi. Maqolda rahbar shaxslarga nisbatan hushyorlik, chaqiriq, da`vat mavjud.

Adabiyotlar:

1. Oxunjonovna, B. D. (2023). MAHMUD QOSHG'ARIYNING “DEVONU LUGOTIT TURK” DAGI SHAKLINI HAM, MAZMUNINI HAM SAQLAGAN IDIOMALAR TAHLILI.

³ Sh. Shomaqsudov, Sh. Shorahmedov. Hikmatnoma: o`zbek xalq maqollarining izohli lug`ati. – T.: O`zb. Sovet Ensiklopediyasi Bosh redaksiyasi, 1990. – 528 b.

2. Bobojonova, D. (2024). TYPES OF OCCUPATIONS RELATED TO THE LIFE OF THE UZBEK PEOPLE (within the profession of blacksmithing). *Modern Science and Research*, 3(2), 739–746. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/29461>
3. More Citation Formats
4. Bobojonova , D. . (2024). MANIFESTATION OF LEXEMES RELATED TO THE PROFESSION OF BLACKSMITHING IN FOLK PROVERBS. *Modern Science and Research*, 3(1), 687–693. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/28380>
5. More Citation Formats
6. Bobojonova Dilnoza Okhunjonovna. (2023). Mahmud Kashgari’s Work "Devonu Lug’otit Turk" is an Important Scientific Heritage. *American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education (2993-2769)*, 1(10), 538–543. Retrieved from <https://grnjournal.us/index.php/STEM/article/view/2169>
7. Bobojonova, D. (2023). MAHMUD KASHGARI’S WORK "DEVONU LUG’OTIT TURK" IS AN IMPORTANT SCIENTIFIC HERITAGE. *Modern Science and Research*, 2(12), 742–748. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/27184>
8. Bobojonova, D. (2023). THE ROLE OF MAHMUD KASHGARI’S WORK "DEVONU LUG’OTIT TURK" IN THE DEVELOPMENT OF THE UZBEK LANGUAGE. *Modern Science and Research*, 2(4), 568–5672. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/19394>
9. More Citation Formats
10. Okhunjonovna, B. D. (2023). Comparative Analysis of Proverbs in "Devonu Lug’Otit Turk" and Currently Available. *European Journal of Higher Education and Academic Advancement*, 1(2), 194–198. Retrieved from <https://journal.silkroad-science.com/index.php/EJHEAA/article/view/139>
11. Bobojonova Dilnoza Okhunjonovna. (2023). A Proverb is a Product of Folk Wisdom. *American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education (2993-2769)*, 1(9), 333–338. Retrieved from <https://grnjournal.us/index.php/STEM/article/view/1509>
12. Oxunjonovna, B. D. (2022). O’ZBEK TILSHUNOSLIGIDA LISSONIY INTERFERENSIYANING KO’RINISHLARI. *PEDAGOGS jurnali*, 14(1), 22-25.
13. Bobojonova, D. (2023). THE IMPORTANCE OF UZBEK FOLK PROVERBS. *Modern Science and Research*, 2(10), 670–675. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/25751>
14. More Citation Formats
15. Bobojonova, D. (2023). MAHMOUD QOSHGARI’S ”DEVONU LEXICOTIT TURK" AND ITS PLACE IN LINGUISTICS. *Modern Science and Research*, 2(10), 538–540. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/24506>
16. Bobojonova, D. . (2023). ANALYSIS OF IDIOMS THAT PRESERVE BOTH FORM AND CONTENT IN MAHMUD KASHGARI’S "DEVONU LUG’OTIT TURK". *Modern Science and Research*, 2(9), 64–67. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/23909>
17. Okhunjonovna, B. D. (2024). Analysis of Folk Proverbs Based on Medicine. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, 4(3), 125-131.